

Abdushukurova Nigora Madaminjonovna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti

(Tas'viri san'at va musiqa ta'lifi) kafedrasi 1- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Bu maqola o'zbek milliy maqomi bo'lgan “Shashmamoq” haqida. Uning tarixi, madaniyatini, hayotiy falsafasini, ruhiy boyligini tarixiy merosi haqida bayon qiladi.

Kalit so'zi: Shashmaqom, Buzruk, Hofiz, savtxon, nasrxon zikr, jarchi, chiyondachi, aytimchi.

Maqom san'ati tarihimizda va o'tmishimizda murakkab va qiyin , maqom san'ati hisoblangan. Maqom arabcha so'zdan olingan bo'lib “istiqomat o'rni”, turar joy ma'nolarida keladi. Ijodiyotdagi falklar ayrimlari xalq og'zaki ijodi maqomlar, vakal, ananaviy honandallik ijrochiligi asosiy orinda turadi. Ananaviy honandalik yo'naliishi xalqimiz orasida alohida ahamiyatga ega. Bu yo'naliish xalqimiz urf odatlarini , anana va qadriyatlarimizni o'ziga hosligini ko'rsatib kelmoda. Ananaviy honandalik milliy musiqaning ko'zga ko'ringan yo'naliishlaridan biridur. Har-bir qo'shiq o'ziga hos ohang va matinga ega, inson his tuyg'ularini o'z ichiga oladi.

Honandalik faqat ijro bilan cheklanmay, qo'shiqning ichki ruhini tinglo'vchiga yetkazish san'ati hisoblanadi. Honandalikda bilim va ovoz birinchi o'rinda turadi. Shuningdek ijro mahorati, so'z talaffuzi kuy ohang ham shular jumlasidandur. Oldingi zamonda xalq orasida laparchi, yallachi, dostonchi, termachi, ashullachi, savodhon, jasirhon zikr, jarchi go'yondachi, aytimchi, honanda deb atalib kelgan va hozirgi kunga kelib hofiz nomi bilan atala boshlandi. Ijrochilar har tomonlama mukammal hisoblanib, eng yuqori darajaga erishishga tuyug'ishga ega bo'lgan hofiz deb yuritish ananaga aylangan. “Hofiz” arabcha “hifiz” so'zidan olingan bo'lib “asrovchi”, ”yodda saqllovchi” deb ma'nolarini anglatadi.

Mumtoz honandalik san'atida aytimlar o'z janiri doirasida so'z matinlarga ega bo'lgan. Har bir maqom o'z tabiatidan kelib chiqib turli harakterga egadur “buzruk” - ulug'vorlik, buyuklik degani. “Rost” - rostgo'ylik, to'g'rilik, “Dugoh”- ishq muhabbat, “Segoh” - hijron, “Iroq” - firoq maqomi nomlariga mansub. Bu maqomlarni ijro etishda har bir honandada tushuncha bo'lishi shart. Bu esa honandani yutug'idur. Ananaviy maqomlar ichida “Sarahboriy Dugoh” alohida ahamiyatga ega bo'lgan musiqa janrlaridan biridir. “Sarahboriy Dugoh” maqomi o'zbek mumtoz musiqa ananasida muhim o'rin tutadi. Bu maqom Shashmaqom tizimining asosiy bo'g'imlaridan biri hisoblanadi. “Sarahboriy Dugoh”ning o'ziga hosligi unuing o'zgaruvchan va chuqr

his tuyg'ularini ifodalovchi ohanglardur. Ushbu maqomni tushunish va qadrlash uchun uning tarixiy ildizlarini musiqiy tuzilishini va madaniy ahamiyatini chuqurroq o'rghanish lozim.

“Dugoh” maqomi o'rtach past va baland tovushlarni uyg'unlashtiradi. Bu musiqada sokin lekin tasirli kayfiyat beradi “Dugoh” - so'zi arab tilidan olingan bo'lib “ikkinchi yoki yon tarafdag'i” manosini anglatadi. “Dugoh” maqomi o'ziga hos ohang va ritmga ega. Maqomning asosiy vazifasi tinglovchiga ruhiy osoishtalik berishdir. “Dugoh” maqomi ko'pkina ma'naviy yig'lnarda, so'fiylar davrasida ijro etilgan ushbu maqomni ijro etishda mumtoz cholg'uvlardan - tanbur, doira, nay, rubob va soz ishlataladi. Vo'kal qismida esa mumtoz qo'shiqchilari alohida yuksak mahorat bulan ijro etadilar. “Dugoh”ning Sarahbori qismi Shashmaqom tarkibida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ko'pincha mumtoz kuylarining darajasini ko'rsatadi. Shu sababli “Dugoh” Sarahbori nafaqat o'zbek, balki butun Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi tarixida o'ziga hos o'rinni egallaydi. Tarix davomida “Dugoh” maqomini mukammal darajada ijro etgan san'atgorlar yashab o'tgan. Ulardan ayrimlari Soliqjon To'ra va Turg'un Alimatov kabi san'atkorlar “Dugoh” maqomini xalqga tanitishda muhim ro'l o'ynagan ularning ijodi “Dugoh”ni avlodlar orasida yashab qolishini taminlashdi. Bugungi kunda “Dugoh” maqomi zamonaviy usullar bilan ijro etilmoqda. Elektro'n musiqa, teatr va kino sohasida maqomning yangi talqinlari yaratilmoqda. Bu o'zgarishlar ananalarni saqlagan holda yangi avlodga maqomni yetkazib berishda muhim ahamiyat kasp etmoqda.

Hulosा:

“Dugoh” maqomi – bu shunchaki musiqa emas, balki o'zbek xalqining asriy madaniyatini, hayotiy falsafasini va ruhiy boyligini aks ettiruvchi boy san'at shaklidur. U nafaqat milliy qadriyat, balki butun insoniatga tegishli san'at durdonasi sifatida qadirlanadi. “dugoh”ni saqlanishi va rivojlanishi madaniy merosimizning davomiyligini ta'minlaydi va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim vositadur.